BUXORO VILOYATI VOHA LANDSHAFTLARI VA ULARNING EKOLOGIK HOLATINI YAXSHILASHNING GEOGRAFIK ASOSLARI

Vafoyev Amir Qo‘ldosh o‘g‘li
Vobkent tumani 14-son umumiy o‘rta ta’lim maktabi o‘qituvchisi

Qabul qilindi: 21.10.2025
Ko‘rib chiqildi: 22.10.2025
Tasdiqlandi: 23.10.2025

Kalit so‘zlar:
Geoekologik vaziyat, antropogen omil, shaharsozlik, transport, sanoat, ikkilamchi sho‘rlanish, kimyoviy cho‘llanish.

Annotatsiya: So‘nggi yillarda qator global muammolar vujudga keldiki, jamiyatning bundan keyingi taraqqiyoti ana shu muammolarni hal qilish bilan bog‘liq bo‘lib qoldi. Global muammolar, kishilik jamiyati hayotining barcha tomonlarini, dunyo siyosatini, iqtisodini hatto davlatlararo va millatlararo munosabatlarni qamrab olmoqda. Shulardan eng muhimi ekologik muammolar bo‘lib qolmoqda.

Kirish. Buxoro vohasi Zarafshon vodiysining qadimgi va hamisha navqiron vohalaridan sanaladi. Ularning tarixi, iqtisodi, ijtimoiy hayoti asrlar davomida vodiyning Zarafshon daryosi bilan bog‘liq bo‘lgan. Albatta, bugun Buxoro vohasi o‘zining ijtimoiy-iqtisodiy salohiyati bilan alohida o‘rin tutadi. Arxeolog va sharqshunos olim V.A.Shishkin o‘zining “Varaxsha” (1963) nomli kitobining birinchi qismini Buxoro vohasi deb nomlaganda “Buxoro vohasi – Zarafshon in’omi” deb aytishga haqlimiz deb yozgan edi [6, 8 b.]. Taniqli olim mazkur kitobda Zarafshon daryosini asrlar davomida mintaqa aholisi va xo‘jalik tarmoqlarini suv bilan ta’minlaganni qayd etgan. Bu tadqiqotchilar uchun vohaning geografik o‘rni, chegaralari, relyefi, geologik va gidrologik rivojlanish tarixini bilish vohalarning taraqqiyoti va salohiyatini o‘rganishlarida, kelajak uchun bashoratlashda asos bo‘ladi.

Vohada ekologik vaziyatining keskinlashtirayotgan sabablardan biri bu antropogen omildir. Bu aholi sonini ko‘payishi bilan chambarchas bog‘liq holda rivojlanadi. Viloyat ekologik holatini buzilishiga sabab bo‘layotgan antropogen omillar qatoriga kon qazish, aholi sonining ko‘payishi, chorva mollarini tartibsiz boqish, zamonaviy shaharsozlik, avtomobillarning ko‘payishi, sanoatning rivojlanishi, chiqindilar, xazon va boshqa yoqilg‘ilarni yoqish, saksovulzorlarni o‘tin uchun kesib yuborilishi kabilar kiradi.

Antropogen omillardan ekologik holatni buzilishiga sabab bo‘layotgan asosiy omillar bu zamonaviy shaharsozlik va chiqindilardir. Ularning ulushi 15 % dan oshdi. Chunki avtomobillarning ko‘payishi, sanoatning rivojlanishi, chiqindilar kabi muammolar ham aynan zamonaviy shaharlarning qurilishi va rivojlanishi oqibatidir. Buxoro viloyatining ekologik xavfsizligi nuqtai nazaridan

qaraganda, suv zahiralarining, shu jumladan yer usti va yer osti suvlarining keskin taqchilligi hamda ifloslanganligi katta tashvish tug‘dirmoqda. Suv resurslarining tobora kamayib, ularning sifati yomonlashib borishi, bozor munosabatlariga o‘tish davrida iqtisodiyotdagi va ekologiyadagi qiyinchiliklar munosabati bilan sug‘orishda ishlatiladigan suvlar sifatining hamda gidromeliorativ tizimlar texnik holati sifatining yomonlashuvi (ko‘p joylarda vertikal drenaj skvajinalarining ishdan chiqishi, yopiq gorizontal drenajlar, kollektor drenaj oqimlarini ekspluatatsiya qilish samaradorligining pasayishi va boshqalar), sug‘oriladigan yerlar sho‘rlanishini doimo monitoring o‘tkazib turishning yo‘qligi bilan bog‘liq holda keyingi yillarda viloyatda tuproqlarning ikkilamchi sho‘rlanish jarayonining tezlashishi kuzatilmoqda. Bunga sabab umuman viloyat bo‘yicha, ayniqsa sug‘oriladigan yerlarda o‘tgan asrning 60-yillariga nisbatan yer osti suvi sathining ko‘tarilib ketishidir. Viloyat qishloq xo‘jaligi yerlarining 15% maydonini egallagan sug‘oriladigan yerlar ma’lumki, qishloq xo‘jalik mahsulotlarining 95% i dan ortig‘ini yetkazib beradi. Viloyat suv resurslarining 90 % i sug‘orishga sarflanadi. Ikkilamchi sho‘rlangan tuproqlar maydoni uzluksiz tarzda kengayib bormoqda. 1960-yillarga kelib yangi yerlarni o‘zlashtirishda qishloq xo‘jalik oborotiga meliorativ sharoiti yomon bo‘lgan, tuproq mahsuldorligi past bo‘lgan yerlar jalb qilindi. Hozirgi vaqtda Buxoro viloyatining amalda 90-95 % yerlari turli darajada sho‘rlangan. Bu yerlarning meliorativ holatini yaxshilash yana qo‘shimcha xarajat talab qiladi. Suv resurslarini chegaralanganligiga qaramasdan tuproq sho‘rini yuvish uchun katta miqdorda suv talab qiladi. Bu esa suv sifatining buzilishiga sabab bo‘lmoqda.

O‘zlashtirilgan cho‘l hududlarida dehqonchilik madaniyatiga amal qilmay ish olib borilishi natijasida o‘rmon va bog‘larning, mol boqiladigan o‘tloqlarning yo‘qolib borishi, keng ko‘lamdagi sho‘rlangan maydonlarining vujudga kelishi va tuproq eroziyasiga (yemirilishiga) sabab bo‘ladi. Shu bois eroziyaning turli ko‘rinishlarini oldini olish maqsadida, cho‘llarning o‘zlashtirilgan hududlariga turli daraxt va o‘simliklar ko‘chatlarini o‘tqazish ishlari yo‘lga qo‘yilgan. Lekin bu landshaft tiplarining kuchli antropogen tazyiqqa uchraganligi quyidagi bir qator noxush ekologik muammolarni keskinlashuviga sabab bo‘lmoqda: - sizot suvlar sathi va mineral tarkibining o‘zgarib borishi; - ikkilamchi sho‘rlanishlarning paydo bo‘lishi va sho‘rlashgan yerlar ko‘lamining tobora kengayib borishi; - kimyoviy va mineral o‘g‘itlarni me’yoridan ortiqcha qo‘llanilishi oqibatida suv, tuproq, o‘simlik va hayvonot dunyosining zararlanishi hamda qishloq xo‘jalik ekinlari, aholi orasida turli kasallliklarni kelib chiqishi;

- tabiiy o‘simlik va hayvonot dunyosining deyarli o‘zgarishga uchraganligi va ayrim turlarni butunlay yo‘qolib ketayotganligi;

- barpo etilgan sanoat korxonalarining nomuvofiq joylashtirilishi oqibatida ularning zararli chiqindilari tomonidan atrof-muhitning ifloslanishi kabilar.

Cho‘llarda kovlangan, tashlandiq, chiqindilar bilan to‘lib, axlatlarga aylanib qolgan joylar bor. Bular antropogen ta’sir tufayli buzilgan, kambag‘allashib qolgan landshaftlardir. Bu kabi landshaftlarni asliga qaytarish, mahsuldorligini oshirish bugungi kundagi eng dolzarb masalalaridan biridir. Buning natijasida, avvalo ekologik ahvolni barqarorlashtirishga erishiladi, qishloq xo‘jaligida foydalanish samaradorligi ortadi. Buning uchun birinchidan, ishlab chiqarishda eng zamonaviy texnologiyalardan foydalanish lozim. Zamonaviy texnologiyalardan foydalanishning yana bir ijobiy jihati shundan iboratki, ishlab chiqarish jarayonida xom ashyo chiqindiga kam chiqadi. Demak undan to‘lig‘icha foydalanish imkoniyati tug‘iladi. Shundagina atmosferaga ham chiqarilayotgan zararli moddalar va birikmalar kamayadi. Yuqoridagi ko‘rib o‘tilgan geoekologik muammolarni bartaraf etish yo‘llari bo‘yicha ba’zi takliflarimizni bildirmoqchimiz:

• Buxoro viloyatidagi yangi yerlarni o‘zlashtirishdan ko‘ra sug‘orma dehqonchilik hisobiga kiritilgan yerlardan foydalanish samaradorligini oshirish;

• Zovurlardan foydalanish ish koeffitsientini yaxshilash;

• Qishloq xo‘jalik ekinlarini joylashtirishdagi nomutanosiblikni bartaraf qilish;

• Cho‘l zonasidagi yaylovzorlardan pala-partish foydalanishni tugatish, yaylovlardan foydalanuvchilar ustidan nazorat ishlarini kuchaytirish;

• Cho‘l hududida yo‘l tizimiga katta e’tibor berish, yo‘l atroflarida cho‘l hududida o‘sadigan daraxtlarni o‘stirish;

• Atrof-muhitni ifloslantiruvchi chiqindilarni kamaytirish, ekotizimlarni nobud bo‘lishini oldini olish;

Xulosa o‘rnida shuni aytish joizki XXI asr ekologik munosabatlar asri bo‘lib ulgurdi. Har bir inson xavfsizligini ta’minlash uchun o‘zi yashab turgan muhitni asrab - avaylashi lozim bo‘ladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Буцков Н.А., Насиров Я.М. Почвы Юго-Западных Кызылкумов. Ташкент, «Фан», 1986, 100 стр.
2. Rafiqov A.A. Geoekologiya asoslari. Buxoro, 2007, 60 bet.
3. Toshev X.R. Buxoro viloyatining mahalliy suv resurslari va ulardan foydalanish muammolari. Geografiya fanining nazariy-amaliy muammolari. Buxoro, 2006.135-139 b.
4. Toshov X.R. Cho‘l landshaftlari va ularning agroimkoniyatlaridan samarali foydalanish (Buxoro viloyati misolida). Geografiya fanlari nomzodi ilmiy darajasini olish uchun taqdim etilgan dissertatsiya avtoreferati. Toshkent, 2008, 26 bet.
5. Nazarov I.Q., Toshov X.R. Cho‘l landshaftlarini tasniflashning asosiy tamoyillari (Buxoro viloyati misolida). O‘zbekiston geografiya jamiyati axboroti. №32, Toshkent, 2008, 18- 20 betlar.
6. Nazarov I.Q., Halimova G.S., Qalandarova D.D. Quljuqtov tizmasi (Qizilqum) landshaftlari resurslaridan foydalanish tarixi va hozirgi holati. Geografiya: Innovatsion g‘oyalar, texnologiyalar va loyihalar. Iqtidorli talabalar va yosh olimlarning Respublika ilmiy-amaliy konfirensiyasi materiallari. Toshkent, 2012, 3-6 betlar.